

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
“Qutadg'u bilig”dagi Allohning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida.....	411
X.Ч.Чамолова	
Таъсирпазири Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalalidina	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida.....	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixologiyistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	

**KONSEPTUAL TAHLIL USULI VA BIRLIKLARI XUSUSIDA****МЕТОД И ЕДИНИЦЫ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА****THE METHOD AND UNITS OF CONCEPTUAL ANALYSIS****Ra'no Raufovna Sayfullaeva¹**¹O'zbekiston milliy universiteti professori, f.f.d**Nafisa Izatullayevna G'aybullayeva²**²Buxoro davlat universiteti, dosenti, f.f.d (DSc)**Annotasiya**

Maqolada konseptual tahlil usuli va birliklari xususida so'z boradi. Konsepti ko'p o'lchovli tavsifga ega bo'lib, har bir kontekstda kognitiv xususiyatlarining mazmuni turlicha namoyon bo'ladi. Konsept ichki holati tashuvchisi bo'lgan subyektning o'z-o'zini idrok etishi nuqtayi nazaridan baholanadi. Konseptual tahlilning obyekti konsept sanalib, tahlil markazida turgan tushuncha konseptning semantik ma'nosini bilish yo'li hisoblanadi. Konseptual tahlil konsepsiyalarni o'rganishning yetakchi usullaridan biri sifatida baholanadi va maqolada uning konseptual modellashirish, geshtalt tuzilma va freym-ssenariy modellashirish kabi tahlil ko'rinishlari haqida mulohaza yuritiladi. Konsept tahlili asosida ma'lum bir konsepsiyani ko'rsatadigan nom bilan bog'liq barcha bilim va g'oyalar inson lisoniy manzarasida tiklanadi. To'plangan ma'lumotlarning aksar qismini metaforik baholashlar tashkil etadi. Aytish mumkinki, metafora – bu bevosita kuzatish uchun mavjud bo'lmagan mavhum tushunchalarni anglash mexanizmi sanaladi. Metafora mexanizmini o'rganish konseptual tahlil usuli bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u lisoniy metaforani rasshifrovka(nimaligini aytib berish) qilish asosida, dunyoning sodd manzarasidagi mavhum tushuncha bilan o'zaro bog'liq bo'lgan “konkret” obrazni ochib beradi va uning birikuvchanligini boshqaradi.

Аннотация

В статье рассматриваются методы и единицы концептуального анализа. Понятие имеет многомерное описание, в каждом контексте содержание его познавательных свойств проявляется по-разному. Понятие оценивается с точки зрения самовосприятия субъекта, внутреннее состояние которого является носителем. Объектом концептуального анализа является понятие, а понятие, стоящее в Центре анализа, - способ познания смыслового значения понятия. Концептуальный анализ оценивается как один из ведущих методов изучения концепций, и в статье рассматриваются его аналитические проявления, такие как концептуальное моделирование, гештальт-структура и моделирование фрейм-сценариев. На основе концептуального анализа в человеческом языковом ландшафте восстанавливаются все знания и идеи, связанные с названием, обозначающим конкретное понятие. Большую часть собранной информации составляют метафорические оценки. Можно сказать, что метафора-это механизм понимания абстрактных понятий, недоступных для непосредственного наблюдения. Изучение механизма метафоры тесно связано с методом концептуального анализа, который на основе расшифровки(рассказа о том, что есть) языковой метафоры выявляет “конкретный” образ, взаимосвязанный с абстрактным понятием в наивной картине мира, и контролирует его связность.

Abstract

The article discusses the methods and units of conceptual analysis. The concept has a multidimensional description, in each context the content of its cognitive properties manifests itself in different ways. The concept is evaluated from the point of view of the self-perception of the subject, whose internal state is the carrier. The object of conceptual analysis is a concept, and the concept at the center of the analysis is a way of knowing the semantic meaning of the concept. Conceptual analysis is evaluated as one of the leading methods of studying concepts, and the article examines its analytical manifestations, such as conceptual modeling, gestalt structure and modeling of frame scenarios. Based on conceptual analysis, all knowledge and ideas related to the name denoting a specific concept are restored in the human language landscape. Most of the information collected is made up of metaphorical assessments. We can say that metaphor is a mechanism for understanding abstract concepts that are inaccessible to direct observation. The study of the metaphor mechanism is closely related to the method of conceptual analysis, which, based on deciphering (telling what is) a linguistic metaphor, identifies a “concrete” image interconnected with an abstract concept in a naive picture of the world, and controls its coherence.

Kalit so'zlar: konsept, konsept tahlil, metafora mexanizmi, modellashirish, geshtalt tuzilma, freym-ssenariy, kodlash funksiyasi, evfemizm, nominativ funksiya, kognitiv bilim.

TILSHUNOSLIK

Ключевые слова: концепт, концепт-анализ, метафорический механизм, моделирование, гештальт-структура, фрейм-сценарий, кодирующая функция, эвфемизм, номинативная функция, когнитивное знание.

Key words: concept, concept analysis, metaphor mechanism, modeling, Gestalt structure, frame-scenario, coding function, euphemism, nominative function, cognitive knowledge.

KIRISH

Keyingi yillarda “konsept” atamasi tilshunoslik sohasida tez-tez takrorlanishiga hamda ayrim lingvistik birliklarning konsept sifatida tadqiq qilish barobarida ko‘plab olimlar tomonidan talaygina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Ushbu tushuncha filologik ta‘limning yangi yo‘nalishlarida, ayniqsa, ko‘p qo‘llanilmoqda. Konsept atamasini nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki boshqa sohalarda ham qo‘llash mumkin, biroq bu atama kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi. Konsept va tushuncha bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, ular turli soha atamaları bo‘lganligi uchun farq qiladi. Konsept kulturologiya va lingvokulturologiya termini bo‘lsa, tushuncha mantiq va falsafa birligi. T.Y.Stepanov talqinicha, tushuncha “belgilangan”, konsept esa “paydo qilinadi”. Konsept nafaqat mantiqiy belgilarni, balki ilmiy, psixologik, hissiy va kundalik hodisalarning tarkibiy qismlarini ham o‘z ichiga oladi[1,824]. Zero, filologiyada konsept – narsa (keng ma‘noda) belgining mazmun tomoni bo‘lib, insoniyatning ijtimoiy tajribasida mustahkamlangan, ularning hayotida tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan, ijtimoiy va subyektiv ravishda inson mavjudligining aqliy, ma‘naviy yoki moddiy sohasi bilan bog‘liq tushunchadir[2,]. Konsept predmet – hodisaning his qilinishi, anglanilishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qayd qilish kerakki, tilshunoslikda konsept va uning tizimli tuzilishini anglash muammolari, olam milliy manzarasi tushunchasi[3,22-31], konsept[4] va ularning nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan talqinlar xorijlik olimlardan V. fon Gumboldt, Dj.P.Lakoff, N.D.Arutyunova, O.A.Kornilov, V.I.Karasik, E.S.Kubryakova, A.Vejbitskaya, Z.D.Popova, I.A.Sternin, Y.V.Mesheryakova, L.K.Bayramova, G.P.Burova tadqiqotlarida kuzatiladi.

O‘zbek tilshunosligida Sh.S.Safarov, M.R.Galiyeva, A.E.Mamatov, M.I.Rasulova, T.Mardiyev, Z.Baynazarov, U.Yigitaliyev, M.Raxmatova[5,180] kabi qator tilshunoslar tomonidan olamning lisoniy manzarasi (OLM) va o‘zbek tiliga xos konsept va konseptosferalar tadqiqi amalga oshirilgan. Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo‘nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o‘rganish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog‘liqdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Konseptual tahlilning obyekti konsept sanalib, tahlil markazida turgan tushuncha konseptning semantik ma‘nosini bilish yo‘li hisoblanadi. Konseptual tahlil konseptualarni o‘rganishning yetakchi usullaridan biri sifatida baholanadi va uning konseptual modellashtirish, geshtalt tuzilma va freym-senariy modellashtirish kabi tahlil ko‘rinishlari mavjud.

Konsept tahlil asosida ma‘lum bir konseptiyani ko‘rsatadigan nom bilan bog‘liq barcha bilim va g‘oyalar inson lisoniy manzarasida tiklanadi.

Konseptual tahlil, E.S.Kubryakovaning fikriga ko‘ra, “bir belgi ostida jamlangan va belgining mavjudligini ma‘lum bo‘lgan kognitiv tuzilma sifatida oldindan belgilab beradigan va dunyo haqidagi bilimlarga olib keladigan umumiy tushunchalarni izlash sifatida namoyon bo‘ladi. Tushunchalar deganda dunyoning umumiy konseptual modeliga kiruvchi belgilar mazmuni, ong birliklarining tasvirlari tushuniladi”[6,85-91].

Avvalo aytish lozimki, tilni o‘rganishga kognitiv yondashuv alohida subyektlarning ma‘lum bir til birligi haqidagi individual guvohliklariga emas, balki barcha so‘zlovchilarning tajribasiga tayanadi va bu tajriba tildagi leksema, birikmalarning voqelanishlarida namoyon bo‘ladi.

*Geshtalt*larni ochib berish konseptual tahlilning taktikasi bo‘lib, uning vazifasi lingvistik bilimlar strukturasi tavsiflashda, ya‘ni “nomda yashiringan belgi mazmuni tasvirlarini aniqlashda hisoblanadi.

Geshtalt – ongdagi individual hodisalarning xilma-xilligini tashkil qiluvchi murakkab, yaxlit funksional psixik tuzilma. Geshtalt – bu hissiy va ratsional elementlarni birlashtirgan, shuningdek, ko'rsatilgan obyekt yoki hodisaning dinamik va statik tomonlarini birlashtirgan yaxlit tasvir[7.]. Geshtalt nemis tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, xilma-xillik degan tushunchani anglatadi va lingvistik ma'noda J.Lakoff tomonidan birinchilardan bo'lib qo'llangan. Geshtaltlar mavhum leksikaning semantik tarkibini tashkil etadi, desak to'g'ri bo'ladi.

Tilshunos E.Y.Guseva qarashlariga ko'ra, geshtalt – bu o'ziga xos yaxlit obrazli tasvir, hali “qo'lga kiritilmagan” tasvir. Biz buni anglaymiz, lekin uni hech qanday belgi ostida olib kela olmaymiz[8]. Demak, aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, “geshtalt” atamasi “tasvir” atamasining dubleti emas, balki empirik tarzda tushuniladigan *yashirin metafora* sanaladi. “Keng ma'noda geshtaltni konsept assotsiativ maydonini shakllantiruvchi vositalardan biri, geshtalt tuzilmasini esa assotsiatsiyalar ierarxiyasi (pog'onaviyligi)ning analogi sifatida ko'rib chiqish mumkin”[9]. Tushunchaning bir turi sifatida ma'lum madaniy ma'lumotlar geshtaltda to'planadi va bu madaniy ma'lumotlar ma'lum hayotiy hodisalar natijasida shaxs tafakkurida to'planadi va lisoniy hodisalar orqali ifodalanadi. To'plangan ma'lumotlarning aksar qismini metaforik baholashlar tashkil etadi.

Metaforaning yoshi inson tili yoshiga deyarli teng bo'lganligi sababli antik davrning eng buyuk mutafakkirlari allaqachon o'z diqqat-e'tiborlarini unga qaratishgan. So'zlarning majoziy, ko'chma ma'noda qo'llanilishiga oid eng dastlabki tasnifi, ya'ni “jinsdan turga, yoki turdan turga, yoki jinsdan jinsga, yoki o'xshashlikka asosan” tasnif Aristotelga tegishli bo'lgan[10,669], lekin zamonaviy ma'noda, faqat o'xshashlik asosidagi ko'chirish metafora deb atalishi mumkin, turdan jinsga va jinsdan turga ko'chirish sinekdoxa hisoblanadi, turdan turga o'tish esa metonimiyadir.

Sitseron metafora nutqda ikki sababga ko'ra, ya'ni birinchidan, tilda yangi narsalar va hodisalarni nomlash uchun so'zlarning yetishmasligi, ikkinchidan, odamlarning nutqini bezash istagi tufayli paydo bo'ladi, deb hisoblagan. Kvintilian o'zining “Notiqni tarbiyalash to'g'risida” kitobida buning uchinchi sababini – odobsiz iboralarning evfemizatsiyasini ta'kidlaydi, buning natijasida metafora uning nuqtayi nazaridan “eng chiroyli va eng muhim trop” deb nomlanishga loyiqdir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida metafora, asosan, adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan, ammo XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa uning ahamiyatligi kognitiv olimlar tomonidan qayta o'rganib chiqilgan. Buning sababi shundaki, metafora faqat nomlash usuli emas, balki bilish va fikrlash vositasi sifatida talqin etila boshlandi.

Aytish mumkinki, metafora – bu bevosita kuzatish uchun mavjud bo'lmagan mavhum tushunchalarni tushunish mexanizmi sanaladi. V.P.Moskvin tomonidan quyida keltirilgan jadvalda metaforizatsiya mexanizmining tarkibiy qismlari ko'rsatilgan[11,184]. (*Qarang. “1-jadval.”*)

Yordamchi obyekt	Asosiy obyekt	Taqqoslanuvchi	Taqqoslash aspekti
<i>tulki</i>	<i>odam</i>	<i>ayyor</i>	<i>xulq-atvor</i>
<i>tojdor</i>	<i>virus</i>	<i>kasallik nomi</i>	<i>kasallik</i>
<i>bezgak</i>	<i>pashsha</i>	<i>hasharot</i>	<i>kasallik tarqatuvchi</i>

1- jadval. “Metaforizatsiya mexanizmi tarkibiy qismlari”

Oxirgi monografiyalardan birida V.K.Xarchenko metaforaning 15 ta funksiyasini aniqlaydi. Ushbu tasnif eng to'liq bo'lgani uchun ham uning asosiy qoidalari ushbu bobda aks ettirishga munosibdir.

1. Nominativ funksiya. Agar metafora tilda yetishmayotgan nomlarni to'ldirsa, u holda nominativ funksiyani bajarayotgan bo'ladi: daryoning labi, stolning oyog'i.

2. Axborot beruvchi va tushuntirish funksiyalari. Ilmiy-ommabop adabiyotdagi metafora tushuntirishni osonlashtiradi va uni keng o'quvchilar uchun ochiq va tushunarli qiladi. Masalan: **Mikroblar** juda **ayyor**: keksayganida o'lib, yo'qolmasdan, balki shartta ikkiga bo'linib qo'ya qoladi, aniqrog'i, yosharib, qaytadan ulg'ayish davrini boshdan kechiradi. **Sodiq hamkorlar – viruslar** (hujayra tarkibiga ega bo'lmagan, nihoyatda mayda o'lchamli qo'zg'atuvchi) va **sodda jonivorlar** (ayrim gijjalar, qo'tir kanasi) ham mikroblar bilan birga inson salomatligiga muntazam tahdid solib

TILSHUNOSLIK

turadi. Mikroblar, asosan, kasalxonalarini o'zlariga eng **ishonchli oshyon** deb bilishadi. Yillar davomida, inson asta-sekin **mitti dushmanlarini ko'rish**, bir-biridan farqlash, nihoyat, ularga qarshi kurashish imkoniyatiga ega bo'ladi. (Sog'lom bola – sog'lom kelajak.) A.Zohidiy.2014. – B.214.

3. Mnemonik funksiya. Uning mohiyati shundan iboratki, metafora tushuntiruvchining vazifasini nafaqat osonlashtiradi, balki materialni yaxshiroq o'zlashtirish va yodlashga ham hissa qo'shadi, chunki yorqin obraz doimo xotirada uzoq vaqtgacha qoladi. Mnemonika (yunoncha mnemonika – eslab qolish san'ati) – sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda saqlashni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Ba'zi mnemonistlar o'zlashtirishda har xil sun'iy usullarni qo'llashga o'rganganligi tufayli katta hajmdagi, hatto ma'nosiz materialni tez esda olib qolish qobiliyatiga erishadilar. Lekin xotira samaradorligini tub ma'noda oshirish uchun sun'iy usullardan foydalanish ikkinchi darajali hamda yordamchi bo'lib hisoblanadi. Umuman, mexanik ravishda yod olishga qaraganda ma'nosiga tushunib yod olish ma'qul va samarali usuldir[12].

4. Metaforaning bilish bilan bog'liq yana bir vazifasi bu evristik yoki izlash funksiyasidir. Ko'pincha ilmiy gipoteza muvaffaqiyatli o'xshashlik bilan boshlanadi, bu keyinchalik butun ilmiy paradigmaning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fizika rivojlanib borishi bilan tabiat kitob bilan taqqoslandi (u hatto ikkinchi Muqaddas bitik deb ham nomlangan), Har bir bunday taqqoslash ortida dunyoning ma'lum bir ilmiy manzarasi turardi.

5. Matni yaratish (shakllantirish) funksiyasi. Metaforaning mazkur vazifasi matni shakllantirish, kengaytirish, izohlash bilan bog'liqdir. Metaforani matnda yanada joylashtirish qobiliyati obyektning yaxlit ko'rinishini shakllantirishga yordam beradi. Misol uchun immunitet tizimining tuzilishini yetib boradigan qilib tushuntirishda, harbiy terminologiyaga murojaat qilish mumkin: *Sog'ligimiz chegaralarini umr bo'yi qo'riqlaydigan qo'shinlar immunitet tizimi... deb ataladi... Dushman qo'shinlari soni juda ko'p yoki dushman askarlari juda kuchli bo'lganida, sog'ligimiz himoyachisiga mustahkamlanishi uchun yordamchi kuchlar talab etiladi* (Gazetadan).

6. Metaforaning keyingi bir-biriga o'zaro yaqin vazifalari – bu uslub va janri shakllantirish funksiyasi. Metafora tilning barcha funksional turlarida ishlatilsa-da, faqat badiiy uslub uchun u ajralmas atributga aylangan. Ilmiy nashrda va badiiy asarda metaforalardan foydalanishning farqi shundaki, birinchi holda olim bitta taqqoslashni topadi, so'ngra uni butun ishi davomida ochib beradi va tarkiblashtirib beradi. Badiiy matn uchun, aksincha, shu matnda takrorlanmaydigan ko'plab original obrazlar yaratish xos hisoblanadi. Metaforaning janr shakllantiruvchi funksiyasini, V.K.Xarchenko ta'biri bilan aytganda, olimlar ko'pincha nazardan chetda qoldiradilar, garchi metaforasiz ertak, maqol va matal kabi janrlar prinsipial jihatdan yaratilmagan bo'lar edi (Яблоко от яблони недалеко падает; Одного поля ягоды. – Olma olma daraxtidan uzoqqa tushmaydi; chunki dalasi bitta)[13,93].


7. Emotsional baholash funksiyasi. Metafora ekspressivlikni oshiruvchi universal usul hisoblanib, matnga ekspressivlik, emotsionallik, baholash kabi xususiyatlarni baxsh etadi hamda muallifning asl niyatini tushunib yetishda ko'maklashadi. Yorqin obraz har doim tinglovchining yetarlicha kuchli hissiy reaksiyasini keltirib chiqarishi sababli, metaforaning idrok etuvchi subyekt ongiga ta'siri "oddiy" fikrlashlar bilan solishtirganda sezilarli bo'ladi. Masalan, *Chaqaloq to'qqiz oy mobaynida issiqqina o'rinda, kindik orqali tayyor oziq moddalar va kislorodni olib, oyoqni osmondan qilib yotgan bo'lsa, endi quruq va keskin ob-havo sharoitiga, tashvishli dunyoning shovqin-suronlariga, baqir-chaqiriqlariga ko'nikishiga, og'iz orqali ovqat, burun orqali nafas olishga, zararli chiqindi mahsulotlarini ichak va peshob yo'llari orqali chiqarishga majbur bo'ladi*.

8. Konseptual funksiyasi shundan iboratki, u orqali inson olamni bilish qobiliyati asosida narsa/harakat/holat va boshqa haqiqatlarni anglay oladi. Metafora, bundan tashqari, manipulyativ maqsadlarda, ya'ni qabul qiluvchining dunyoqarashini o'zgartirish yoki uni biror narsa qilishga majburlash uchun ishlatilishi mumkin – bu suggestiv (taklif qiluvchi) funksiya (8) sanaladi.

9. Metaforaning kodlash funksiyasi tabulashtirishlarda (*pes* o'rnida *o'sha* olmoshi ishlatilganida), evfemizmlarda (*o'lgan* o'rnida *vafot etgan*, *doril* *baqoga rihlat etgan*), harbiy amaliyotlarni nomlashda (Bo'ron, Chaqmoq) amalga oshiriladi. Maxfiylik funksiyasidagi metafora ma'noni to'liq yashirish uchun ishlatiladi. Topishmoq buning eng yorqin namunasi hisoblanadi (*Yer tagida oltin qoziq*).

V.K.Xarchenko tabriklar, salomlashishlar, qadah soʻzlari, tilaklar, taʼzivalardagi oʻziga xos marosim nutqlari ham metaforik tasvirlardan xoli emasligini taʼkidlaydi va ular ham maʼlum vazifa bajarishini asoslaydi.

Kognitiv tilshunoslik metaforaning suggestiv (taklif qilish) funksiyasiga, yaʼni uning inson dunyoqarashiga taʼsir qilish xususiyatiga katta eʼtibor beradi. Koʻrinib turganidek, metafora tilga yetishmayotgan maʼnoni ifodalash, badiiy ifoda vositasini, nutq figurasini ifodalash usulidan toʻngʻni manipulyatsiyalash vositasigacha boʻlgan uzoq yoʻlni bosib oʻtadi. (Qarang: “2 - rasm.”)



1.2-rasm. “Metaforaning asosiy lisoniy funksiyalari”

Metafora mexanizmini oʻrganish konseptual tahlil usuli bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, u lisoniy metaforani rasshifrovka qilish asosida, dunyoning sodda manzarasidagi mavhum tushuncha bilan oʻzaro bogʻliq boʻlgan “konkret” obrazni ochib beradi va uning birikuvchanligini boshqaradi. Kognitiv bilimlar, albatta, freymlar bilan bogʻlanadi.

“Freym” (frame) – inglizcha soʻzdan olingan boʻlib, “karkas” yoki “ramka” degan maʼnolarni anglatadi.

Freym – bu turli xil axborot va situatsiyalarni universal sistema tarzida bayon qiluvchi, kognitiv struktur tiplari asosida standart bilimlar majmuini har xil modellar va har xil til birliklari yordamida ifoda etuvchi, koʻp komponentli konseptdir. Freymlar toʻgʻridan toʻgʻri nutqning muloqot jarayonida ishtirok etadi va ekstralingvistik bilimlar dunyosini oʻzida aks ettiradi. U inson ongida maʼlumotlarni saqlash yoʻlidir. Freymlar insonning umri davomida yiqqan ijtimoiy-madaniy maʼlumotlariga asoslanadi[14], deya ishchi taʼrif beriladi manbalarda. Boshqacha qilib aytganda, freymlar maxsus kognitiv tuzilmalar boʻlib, ularning vazifasi assotsiatsiyalar va ogʻzaki muloqot yordamida amalga oshiriladigan lingvistik ongni stereotiplash. Rus tilshunosligida freym oʻziga xos tushuncha sifatida koʻrilib, quyidagicha taʼriflanadi: “xotirada saqlanadigan assotsiatsiyalar toʻplami, ularning tarixi”[15,103]. Manbalarda xitoylik lingvistlarning freymlar uchun pogʻonaviylik, tizimlilik, madaniy xoslik mansubligini qayd etishgani keltirilgan.

XULOSA

Umuman olganda, konsept biror hodisa\obyekt\predmet haqidagi katta mental bilim majmuyi boʻlib, geshtalt, tasvir, freym (ramka) kabilar uning namoyon boʻlishida turlari, navlari sifatida baholanadi. Bu holatda biz lisoniy tur-jins munosabatini kuzatishimiz mumkin, yaʼni konsept jins, sanab oʻtilganlar esa tur sifatida – giponim\ giperonim sifatida bir-biriga bogʻliqdir. Milliy konseptual sohaning negizini tashkil etuvchi asosiy konseptlarni oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar olimlarni konseptlarda aks etgan madaniy qadriyatlarini tizimlashtirishning yangi darajasiga olib chiqish va madaniyat konseptuariusini yaratish miqyosigacha olib chiqmoqda. Darhaqiqat, antropologik ahamiyatga ega tushunchalarning roʻyxatini toʻldirayotgan ijtimoiy-madaniy jihatdan talab qilinayotgan konseptual mohiyatlarni oʻrganish ustuvor boʻlib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж:Изд-во Воронеж. гос. ун-та, 1996. -103 с.
2. Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фанлари бўйича PhD дисс. – Қарши, 2018. – 151 б.
3. Маслова В.А. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд, 2011. – Б. 8.
4. Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Т.: Чўлпон, 2018. – 100 б.
5. Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фанлари бўйича PhD дисс. – Қарши, 2018. – 151 б.
6. Худайберганаева Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.19.
7. Раҳматуллаев Ш., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқача этимологик луғати. Учинчи қисм. – Тошкент, 1999. – 144 б.
8. Лурье С. В. Психологическая антропология : история, современное состояние, перспективы / С. В. Лурье. – 2-е изд. – Москва : Академический проект : Альма Матер, 2005. – С. 587
9. G'aybullayeva N.I. The Concept of Health and Disease. Texas Journal of Philology, Culture and History ISSN NO: 2770-8608 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 20/02/2023. – В. 31-34.
10. G'aybullayeva N.I. Kognitiv tilshunoslik taraqqiyoti. Til, ta'lim tarjima xalqaro jurnal. Toshkent. – №3. 2022. – В. 7-17.